

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI

ESHCHANOVA AZIZA KARRIYEVNA

**TABIY INDIGONING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA BA‘ZI
METALLARNI ANIQLASHDA ANALITIK QO‘LLANILISHI**

02.00.02 – Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on chemical sciences**

Eshchanova Aziza Karriyevna

Tabiiy indigoning fizik-kimyoviy xossalari va ba’zi metallarni
aniqlashda analitik qo‘llanilishi..... 3

Эшчанова Азиза Карриевна

Физико-химические свойства природного индиго и его
аналитическое применение при определении некоторых
металлов..... 21

Eshchanova Aziza

Physicochemical properties of natural indigo and it’s analytical
application in the determination of certain metals..... 39

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works 42

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI

ESHCHANOVA AZIZA KARRIYEVNA

**TABIY INDIGONING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA BA‘ZI
METALLARNI ANIQLASHDA ANALITIK QO‘LLANILISHI**

02.00.02 – Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/K331 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Xorazm Ma’mun akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifada (www.ik-kimyo.nuu.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Smanova Zulayxo Asanalievna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abduraxmonov Ergashboy
kimyo fanlari doktori, professor

Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «15» 06 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel: (998 71) 227-12-24; faks: (998 71) 246-53-21; 246-02-24. e-mail: chem0102@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy uiversitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (81 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel: (998 71) 227-12-24; faks: (998 71) 246-53-21; 246-02-24.

Dissertatsiyaning avtoreferati 2023 yil « 01 » 06 tarqatildi.

(2023 yil «01» 06 dagi 6- raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Daminova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi k.f.d., professor

M.A. Mahkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, k.f.d., professor

N.H.Qutlimurotova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, k.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida tabiiy indigo moddasi farmatsevtika, oziq-ovqat, parfyumeriya va tekstil sohaslarida turli xil preparatlar olishda keng qo'llanilmoqda. Xususan, indigo va uning hosilalaridan antibakteriologik, antioksidantlik, rak hujayralariga qarshi xususiyatga ega dori vositalari, bo'yoqlar kabi muhim birikmalar olinadi. Shuningdek, indigo tarkibi funksional faol guruhlarga ega bo'lgani uchun kimyo sohasida o'gir metallarni samarali aniqlash usullarini ishlab chiqishda analitik reagent sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kimyogar olimlar tomonidan immobillangan organik reagentlar asosida og'ir metall ionlarini aniqlashning turli usullarini ishlab chiqish ustida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Tabiiy organik reagentlar analitik kimyoda oltin, kumush va boshqa metallarni aniqlashda qilinayotgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyatga ega. Analitik kimyoda organik reagentlar yordamida o'gir metall ionlarini aniqlashda yuqori sezuvchanlikka ega bo'lgan tanlab ta'sir etuvchan, tezkor zamonaviy usullarni ishlab chiqish alohida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ham so'nggi yillarda o'simliklardan ajratib olinadigan moddalardan oqilona foydalanish, ularning analitik faolligini oshirishda, ta'sir mexanizmlari va selektivligini oshirishda modifikatsiya usullariga asoslangan reagentlarni joriy qilish borasida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, ushbu tabiiy moddalardan nafaqat tibbiyotda, balki analitik kimyo sohasida foydalanish va ular yordamida og'ir metall ionlarini aniqlash borasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish» vazifalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2021 yil 24-iyundagi PQ-5159-son «Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori, 2022 yil 16-fevraldagi PQ-131-son «O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida» gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo va kimyoviy texnologiyaning nazariy asoslari, nanotexnologiyalar ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo olimlari tomonidan indigo moddasidan farmatsevtik va to‘qimachilik va engil sanoatda qo‘llanilishi va tadqiq qilish bilan chet ellik olimlardan L.Pattanaik, S.K.Padxi, P.Xaridrasad, M.Kumari, S.Bera, G.K.Lahiri, V.Kaim, H.Purnama, N.Hidayati, D.S.Safitri, S.Rahmawati, J.Poulin va boshqalar tomonidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, ko‘pgina olimlar tomonidan og‘ir metall ionlarini aniqlashda bir vaqtning o‘zida ham konsentrlash, ham aniqlash mumkin bo‘lgan qattiq tashuvchilarga immobillangan organik reagentlardan foydalanishgan.

Shuningdek, O‘zbekistonda turli o‘simliklardan ajratib olingan moddalarni reagentlar sifatida og‘ir metall ionlarini aniqlashning tezkor va samarali usullarini ishlab chiqish bo‘yicha N.T.Turabov, A.M.Nasimov, M.Gevorgyan, I.P.Djiyanbaeva, E.Abduraxmanovlar shug‘ullanishgan.

Ushbu izlanishlarga qadar O‘zbekistonda Indigofera Tinctoria o‘simligidan ajratib olingan indigo moddasini agrotexnik va biologik tomondan o‘rganilgan lekin, analitik kimyoda reagent sifatida qo‘llashga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shuning uchun, o‘simliklar tarkibidan ajratib olinadigan moddalarni tizimli o‘rganish va ularning tanlab ta’sir etish xossalarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiya mavzusi dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №A-12-53 «Ekotoksikantlarni atrof-muhit ob’ektlarida fotometrik va sorbsion-fotometrik aniqlash usullarini ishlab chiqishda polimer tashuvchilarga immobillangan reagentlar» mavzusidagi fundamental va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy sharoitda o‘stirilgan Indigofera Tinctoria o‘simligidan ajratib olingan indigoning fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qilish va uni sanoat chiqindi suvlari tarkibidagi Cu (II) va Co (II) ionlarini analiz qilishda analitik reagent sifatida foydalanish mumkinligini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy sharoitda o‘stirilgan Indigofera Tinctoria o‘simligi tarkibidan indigo moddasini ajratib olish;

ajratib olingan tabiiy indigo moddasining fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qilish va kvant-kimyoviy hisoblashlar orqali indigoning og‘ir metallar bilan kompleks hosil qilish mexanizmlarini aniqlash;

tabiiy indigo reagentini PPA-1 va PPD-1 qattiq tashuvchilarga immobillashning optimal sharoitlarini topish;

PPA-1 va PPD-1 tolalariga immobillangan indigo reagentining eritma tarkibidagi Cu (II) va Co (II) ionlari bilan kompleks hosil qilishining optimal sharoitlarini aniqlash;

PPA-1 va PPD-1 tolalariga immobillangan indigo reagenti yordamida eritmadagi Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopik usulini ishlab chiqish;

eritma tarkibidagi Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlashda, ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usulni real ob'ektlarida qo'llanilish sohalarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti PPA-1 va PPD-1 tolalariga reagentning immobillanish jarayonlari, hamda indigoning og'ir metal ionlari bilan kompleks hosil qilish reaksiyalari.

Tadqiqotning predmeti PPA-1 va PPD-1 tolalari va tabiiy indigo moddasi, og'ir metall ionlari tutgan atrof muhit ob'ektlarini ifloslantiruvchi chiqindi suvlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. YuSSX, spektroskopik (IQ, sorbsion-spektroskopik, nur yutilish va nur qaytarish spektroskopiyasi) kabi optik analiz usullari, xromato-mass-spektrometriya va kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor mahalliy sharoitda o'stirilgan Indigofera Tinctoria o'simligidan ajratib olingan tabiiy indigoni analitik reagent sifatida eritmadagi Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlash uchun usul ishlab chiqilgan;

indigo reagentini eritmadagi Cu (II) va Co (II) ionlari bilan kompleks hosil qilishining optimal sharoitlari (pH=3-6 Cu (II) ionlari uchun, pH=2-5 Co (II) ionlari uchun) topilgan;

Cu (II) va Co (II) ionlarini immobillangan indigo organik reagenti bilan hosil qilgan komplekslarining mol nisbatlari 1:1 va muvozanat konstantalari Cu (II) ionlari uchun $K=1,68 \cdot 10^4$ va Co (II) ionlari uchun $K=2,26 \cdot 10^4$ ekanligi aniqlangan, bu esa komplekslarning barqaror ekanligini isbotlagan;

indigo reagenti yordamida eritmadagi Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlashning metrologik va analitik parametrlari yaxshilangan sorbsion-spektroskopik usuli ishlab chiqilgan;

Cu (II) va Co (II) ionlarini indigo reagenti bilan aniqlashda ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usulni quyi aniqlanish chegarasi 0,01 mkg/ml va 0,02 mkg/ml ga tengligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

indigo reagentini PPA-1 va PPD-1 tolalariga immobillanishning va kompleks hosil bo'lishining optimal sharoitlari aniqlangan;

Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopik usuli ishlab chiqildi;

ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul turli model, binar, murakkab aralashmalar va sanoat chiqindi suvlari namunalarda Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlash uchun qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarni (IQ, sorbsion-spektroskopik, nur yutilish va nur qaytarilish spektroskopiyasi) kabi optik analiz usullari, shuningdek YuSSX, standart namunalari bilan taqqoslash hamda matematik

statistika usulida tahlil qilish, xromato-mass-spektrometriya va kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan va boshqa metodlar bilan taqqoslashga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati mahalliy sharoitda o‘stirilgan Indigofera Tinctoria o‘simligidan ajratib olingan indigo moddasini analitik reagent sifatida eritmadagi Cu (II) va Co (II) ionlarini tezkor aniqlash va analitik parametrlarini yaxshilash imkonini berganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati eritmadagi Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopik usullarini tabiiy va sanoat chiqindi suvlari analizida qo‘llanilishi bilan ifodalangan.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Indigo reagenti yordamida sanoat oqava suvlari tarkibidagi Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlash uchun olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Indigofera Tinctoria o‘simligidan ajratib olingan indigo moddasidan Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ ning amaliyotiga joriy qilingan. («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ ning 2022 yil 4-maydagi 0008830/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada chiqindi suvlari tarkibidagi Cu (II) va Co (II) ionlarini immobillangan indigo reagenti yordamida sobson-spektroskopik usulda aniqlashning sezgir va tezkor topish imkonini bergan.

Indigofera Tinctoria o‘simligidan ajratib olingan indigo moddasidan Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida amaliyotga joriy etishga tavsiya qilingan. («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ ning 2023 yil 14 mart 23/01-01-07/118-son ma‘lumotnomasi). Natijada Cu (II) va Co (II) ionlarini sanoat chiqindi suvlari tarkibida aniqlashning tezkorligi, arzonligi, tanlab ta’sir etuvchanligi bilan farq qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari asosida 10 ta, shundan, 4 ta xalqaro va 6 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan, Oliy attestatsiya komissiyasining tavsiya etilgan nashrlarida 5 ta, shundan 3 tasi Respublika va 2 tasi xalqaro jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari keltirib o‘tilgan, tadqiqotning ob’ekti va predmeti keng yoritilgan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi aytib o‘tilgan, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy

natijalari keltirilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy etilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tabiiy indigo organik reagentining xossalari va qo'llanilishi**» deb nomlangan birinchi bobida indigoni ajratib olish va uning fizik-kimyoviy xossalari, bu moddaning to'qimachilikka oid xossalari, farmatsevtik xususiyatlari, biokimyoviy xossalari juda ko'p o'rganilganligi, ammo kimyoviy tomondan kam o'rganilganligi, ayniqsa, analitik tomonidan o'rganilmaganligi ma'lum bo'ldi. Indigoni to'qimachilikda bo'yoq sifatida matolarni bo'yash bo'yicha turli xil metodikalar keltirilgan, shuningdek farmatsevtik xususiyatlaridan turli xil kasalliklarni davolashda ishlatilishi batafsil o'rganilgan. Shuningdek, uning biologik tomondan biokatalizatorlik xossalari borligi aniqlangan, hatto uning elektrotexnikada foydalanish mumkin bo'lgan xossalari chet ellik olimlar tomonidan o'rganilgan. Kimyoviy tomondan esa indigoning ba'zi metallar bilan komplekslari haqida deyarli kam o'rganilganligi keltirib o'tilgan. Adabiyotlar sharhidan shunisi ma'lum bo'ldiki, analitik reagent sifatida o'rganilmaganligi shu ishlarni olib borishga asos bo'ldi.

Dissertatsiyaning «**Tabiiy indigoni ajratib olishda va analitik qo'llanilishida ishlatiladigan asbob uskunalar, reaktivlar, eritmalar tayyorlash va natijalarni qayta ishlash**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotda foydalaniladigan standart va ishchi eritmalar analizga tayyorlash metodikasi, qattiq tolali sorbentlar haqida ma'lumotlar, organik reagentni tolali sorbentlarga immobilash, keltirilgan. Shuningdek indigo reagentini o'simlik tarkibidan ajratib olish, tozalash, organik reagentni tolali sorbentlarga immobilash, olingan natijalar aniqligini topishda qo'llaniladigan usullar keltirilgan. O'simlik tarkibidan tabiiy indigo reagenti ajratib olindi va yupqa qatlamli xromatografiya usuli bo'yicha tahlil qilindi va bunda bir nechta xil sistemalar tanlab olindi, ulardan xloroform-geksan-metanol sistemasida 3,5:2:1 nisbatida eng yaxshi natijaga erishildi, bunda uch xil rangga tegishli moddalar ajralib chiqdi. Xloroform-geksan-metanol sistemasida 3,5:2:1 nisbatida Rf qiymatlari tegishlicha 0,211, 0,307, 0,519 ga teng bo'ldi. Tadqiqot ishida foydalanilgan organik reagentning fizik-kimyoviy xossalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Indigo reagentining fizik-kimyoviy xossalari

Moddaning nomi	Brutto formulasi	Nisbiy Mr	T ⁰ _{suyuq}	Agregat holati	λ _{mak} nm	Moddaning Rangi	Fer-yatem si
Indigo	C ₁₆ H ₁₀ N ₂ O ₂	262,27	392	qattiq	600	ko'k	40±5
tabiiy indigo	C ₁₆ H ₁₀ N ₂ O ₂	262	393	qattiq	605	ko'k	30±5


Dissertatsiya ishining «**Tabiiy indigo organik reagentini polimer tashuvchilarga immobilashning optimal sharoitini tanlash**» nomli uchinchi

bobida indigo reagentining kvant-kimyoviy tahlili, indigoning metallar bilan kompleks hosil qilishini baholash, immobilash jarayonini olib borish uchun optimal bufer eritma tanlash, immobilanish jarayonining vaqtga bog‘liqligi, immobilangan tabiiy indigo organik reagentini IQ spektri tahlillari keltirilgan.

Indigo molekulasining kvant-kimyoviy tahlili (DFT/6-31 G(d,p) usulida ORCA 4.2 dasturi yordamida elektron tuzulishi o‘rganildi. Birikmalarning molekulararo ta’sirlashuvlarni, nukleofil va elektrofil reaksiyon markazlarni aniqlashda keng qo‘llaniladigan parametrlardan biri bu elektrostatik potensialdir (ESP). Indigo trans va sis holatlari zaryad taqsimotlari bir-biridan (O atomi zaryadi hisobiga) qisman farq qiladi. Ammo, ESP sathi musbat va manfiy qiymatlari sis-holatda trans holatga nisbatan ikki barobar katta (1-2-rasmlar). Sis holatda elektronodonor va elektronoakseptor qismlar uyg‘unlashganidan nisbatan katta qiymatga ega bo‘lgan minimum va maksimum sathlari yuzaga kelgan. 1 va 2-rasmlarda qizil rangli soha ESP sathining manfiy sohasi bo‘lib, elektronlarga boy soha hisoblanadi va u kislorod atomi atrofida joylashgan. Bu kislorod atomining molekulararo ta’sirlashuvlarda elektronodonor sifatida qatnashishi mumkinligini ko‘rsatadi. Siyoh rang soha esa, ESP sathining musbat sohasi bo‘lib, elektrono-defitsit sohalarni ko‘rsatadi. ESP sathi tahlili NH guruhi H atomi atrofida eng katta musbat qiymat mavjudligini va ushbu atomning molekulararo H-bog‘ hosil qilish qobiliyati mavjudligini va nukleofil hujum uchun markaz bo‘lishini ko‘rsatadi. Atomlardagi zaryad taqsimoti va ESP tahlili neytral molekula va uning anionlari molekulararo ta’sirlashuvlarda elektronodonor sifatida qatnashishi mumkinligini ko‘rsatdi.



1-rasm. Indigo trans holati uchun elektrostatik potensial sathi maksimum va minimumlari (molekulası yuzası va yon tomoni bo‘yicha ko‘rinishi keltirilgan)



2-rasm. Indigo sis holati uchun elektrostatik potensial sathi maksimum va minimumlari (molekulasi yuzasi va yon tomoni bo'yicha ko'rinishi keltirilgan)

DFT/6-31G(d,p) usulida olib borilgan hisoblashlar natijasida indigo molekulasi trans holati nisbatan (18,2 kkal/mol) optimal ekanligi va ular orasidagi bir-biriga o'tish bar'eri neytral molekulaga nisbatan monoanion (dianion) holatlarida qariyb bir barobar kichik ekanligi aniqlandi. Monoanion (dianion) hosil bo'lishi va N-H bog' energiyasi imidazol, indol va pirrolning N-H bog'ining energiyasidan kichik ekanligini ko'rsatdi.

Atomlardagi zaryad taqsimoti va ESP tahlili neytral molekula va uning anionlari molekulalararo ta'sirlashuvlarda elektronodonor sifatida qatnashishi mumkinligini ko'rsatdi. Indigo trans va sis holatlari BE kattaliklarini pirrol, imidazol va indol BE kattaliklariga taqqoslagan holda baholash mumkin. Indigo molekulasida N-H bog' energiyasi standart sifatida keltirilgan birikmalarnikidan ancha past ekanligini ko'rsatdi. Hisoblash natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Pirrol, imidazol, indol va indigo sis, trans holatlari N-H bog' energiyasi hamda deprotonlanish entalpiyasi (Δ_{kis298})

Birikmalar	BE N-H, kkal/mol*	Δ_{kis298} , kkal/mol**
Pirrol	88.85 (93.92)	373.23
Imidazol	90.45 (95.04)	363.11
Indol	85.7 (88.00)	360.51
Indigo (trans-holat)	80.85	348.34
Indigo (sis-holat)	67.04	335.31

Olingan natijalardan ko'rish mumkinki, indigoning trans-holatidan ko'ra sis-holatida sezilarli darajada past ekanligini ko'rsatdi. Hisoblashlar deprotonlanish entalpiyasi ham, sis holatida trans holatga nisbatan keltirilgan birikmalarning Δ_{kis298} kattaliklaridan ham kichikligini ko'rsatdi.



3-jadvalda keltirilgan natijalarga tayangan holda, tanlangan maqbul sharoitlarda keyingi tadqiqotlarda PPA-1 va PPD-1 tolalariga indigo reagenti

immobillandi va ular mis (II) va kobalt (II) metall ionlarini aniqlash uchun qoʻllanildi.

3-jadval



Indigo reagentning immobillanishini maqbul sharoitlari (m=0,2000 gr)

Tashuvchi	Reagent	Universal bufer aralashma hajmi, ml	pH	Yutilish maksimumi, nm	Vaqt, min.
PPA-1	Indigo	5,00	3,0-6,0	605	7
PPD-1		5,00	2,0-5,0	605	5



3-rasm. PPA-1 tolaga immobillangan indigo reagenti nur yutilish spektri: immobillashdan oldin (1), immobillashdan keyin (2)

4-rasm. PPA-1 tolaga immobillangan indigo reagentining nur qaytarish spektri. Immobillangan indigo (1), tola (2).




5-rasm. PPD-1 tolaga immobillangan indigo reagenti nur yutilish spektri: immobillashdan oldin (1), immobillashdan keyin (2)

6-rasm. PPD-1 tolaga immobillangan indigo reagenti nur qaytarilish spektri: immobillangan indigo (1), tola (2)


Keltirilgan 3-6-rasmlarda eritmadagi va immobillangan sharoitdagi indigo organik reagentining nur yutilish va nur qaytarilish spektrlaridan ko‘rinib turibdiki, indigo organik reagenti PPA-1 va PPD-1 tolalariga immobillanganda tanlab ta’sir etish qobiliyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Tabiiy indigo reagenti, tanlangan qattiq tashuvchi sorbentlarni va ular o‘rtasidagi immobillanish jarayonidagi sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni IQ spektroskopik usulida o‘rganildi. Tadqiqot mobaynida tabiiy indigo, tanlab olingan tolalar va ular o‘rtasidagi immobillanish jarayonini IQ spektri olindi va tahlil qilindi.

Indigoning IQ spektrida yutilish polosalaridan N-H bog‘ining valent tebranishi ($3000-3500\text{ cm}^{-1}$), barmoq izi sohasida ($1500-1700\text{ cm}^{-1}$) kuzatiladi va deformatsion tebranish ($1000-1100\text{ cm}^{-1}$) sohasida C=C bog‘ining halqalar o‘rtasidagi tebranishi kuzatilgan. C–N bog‘ining oberton valent tebranishi ($2400-2000\text{ cm}^{-1}$) sohada kuzatilgan, shuningdek C=O bog‘ining 1664 cm^{-1} sohasida yutilish chastotalari kuzatiladi. Bundan tashqari, benzol yadrosidagi C-C bog‘ining valent tebranishi ($1530-1475\text{ cm}^{-1}$), tekislikdagi ($1250-950\text{ cm}^{-1}$) tebranishi kuzatiladi. Tanlangan qattiq tashuvchi PPA-1 tolasida tarkibidagi ikkilamchi amino guruhlar indigo reagenti bilan bog‘ hosil qilishda ishtirok etadigan funksional guruh hisoblanadi. Tola tarkibidagi amino guruhning 3351 cm^{-1} sohada valent tebranishini kuzatish mumkin. Shuningdek, CH guruhini 1648 cm^{-1} sohada tebranish chastotalarini kuzatish mumkin. Olingan natijalar 7-8-rasmlarda keltirilgan.



7-rasm. Indigoning IQ spektri



8-rasm.PPD-1 tolaga immobillangan indigoning IQ spektri


Immobilangan reagentning IQ spektroskopik tahlili natijalari tabiiy indigo reagenti PPA-1 tolasiga immobillanganligini ko‘rsatdi. Toladagi 3058 cm^{-1} sohadagi yutilish chiziqlarini 3317 va 3365 cm^{-1} sohaga siljiganini kuzatish mumkin. 1670 cm^{-1} sohadagi -NH guruhining deformatsion tebranishi yutilish chiziqlarining 1643 cm^{-1} sohaga siljigani kuzatildi va PPA-1 tola bilan kimyoviy bog‘langanligi haqida xulosa qilish mumkin.

Dissertatsiyaning «**Mis (II) va kobalt (II) ionlarining immobillangan tabiiy indigo reagenti bilan kompleks hosil qilishining optimal sharoitini tanlash**» nomli to‘rtinchi bobida aniqlanayotgan metall ionlarining immobillangan indigo reagenti yordamida kompleks hosil qilishining optimal sharoitlari tanlandi, Cu (II) va Co (II) ionlarini indigo reagenti bilan kompleks hosil qilishiga muhitning ta’siri, komponentlarini quyilish tartibi, Cu (II) va Co (II) ionlarining immobillangan indigo reagenti bilan hosil qilgan komplekslarini Buger-Lambert-Ber qonuniga

bo'ysunishi, halaqit beruvchi ionlar ta'siri aniqlangan va shuningdek olingan komplekslarning spektroskopik tavsiflari keltirilgan.


Cu (II) va Co (II) ionlarining indigo reagenti bilan kompleks hosil qilishda optimal sharoitlari tanlanganligi, bufer eritmaning tabiati, reagentlarning quyilish tartibi, muhitning ta'sirlari o'rganildi.

Bizga ma'lumki, kompleks hosil bo'lish jarayoni ma'lum bir muhitda amalga oshadi.




9-rasm. Optik zichlikning pH ga bog'liqlik grafigi

9-rasmdan ko'rinadiki, PPA-1 tolaga immobillangan indigo bilan Cu (II) ionini kompleks hosil qilishi pH=3-6 oralig'ida va PPD-1 tolaga immobillangan indigoni Co (II) ionini bilan hosil qilgan kompleksi pH=2-5 oralig'ida maksimal nur yutishi aniqlandi.



10-rasm. Cu (II) ionining Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi



11-rasm. Co (II) ionining Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi

Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlashda ishlab chiqilgan usulni korrelyatsiya koeffitsienti 1 ga yaqinligi usulning yuqori aniqlikka ega ekanligini isbotlaydi.

4-jadval

Cu (II) va Co (II) ionlarining organik reagent bilan kompleks hosil qilishining maqbul sharoitlari

Reagent	Metall ioni	pH	Universal bufer aralashma hajmi, ml	Yutilish maksimumi, nm	Buger - Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi	Reagent hajmi, ml
Indigo	Cu (II)	3,0 – 6,0	5,00	700	5-60 mkg/ml	2,0
Indigo	Co (II)	2,0 – 5,0	5,00	705	5-60 mkg/ml	2,0

5-jadval


PPA-1 va PPD-1 tolalarga immobillangan indigo reagentining Cu (II) va Co (II) ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining spektral tavsifi

$\lambda_{\text{mak R}}$		pH	$\lambda_{\text{mak kom}}$	$\Delta\lambda$	$C_{\text{Cu}^{2+}}$ mkg/ml	$C_{\text{Cu}^{2+}}$ mol/l	ΔA	S.s	ϵ
605	PPA-1	3-6	700	95	60	$1 \cdot 10^{-4}$	0,433	$1,64 \cdot 10^{-4}$	$4,3 \cdot 10^4$
$\lambda_{\text{mak R}}$		pH	$\lambda_{\text{mak kom}}$	$\Delta\lambda$	$C_{\text{Co}^{2+}}$ mkg/ml	$C_{\text{Co}^{2+}}$ mol/l	ΔA	S.s	ϵ
605	PPD-1	2-5	705	100	60	$1 \cdot 10^{-4}$	0,533	$1,29 \cdot 10^{-4}$	$5,5 \cdot 10^4$


4-5-jadvallar natijalaridan, immobillanish reaksiya kontrastligi va sezgirligining oshishiga olib kelganligini ko'rish mumkin.

Olingan kompleks birikmalar tarkibiy mollar nisbatini izomolyar seriyalar usuli yordamida aniqlandi. Immobillangan indigo reagenti bilan Cu (II) va Co (II) ionlarining kompleks birikmalarining mollar nisbati 1:1 nisbatda ekanligi ma'lum bo'ldi.

Kompleks hosil bo'lishini isbotlash uchun Tolmachyov usulidan foydalanildi va uning muvozanat konstantasi va haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsiyenti hisoblab topildi. Olingan natijalar 12-13-rasmlarda keltirilgan.



12-rasm. Tolmachov usulida PPA-1 tolaga immobillangan indigo reagenti bilan Cu (II) ionini aniqlash reaksiyasining muvozanat konstantasini topish grafigi



13-rasm. Tolmachov usulida PPD-1 tolaga immobillangan indigo reagenti bilan Co (II) ionini aniqlash reaksiyasining muvozanat konstantasini topish grafigi

Cu (II) va Co (II) ionlari uchun burchak tangensi, molyar soʻndirish koeffitsiyenti va muvozanat konstantalari hisoblandi ular tegishli: $K_m = 1,68 \cdot 10^4$, $K_m = 2,26 \cdot 10^4$ ga teng.

Ishlab chiqilgan Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlash usulining toʻgʻriligini «kiritildi-topildi» usuli bilan baholandi va olingan natijalar 6,7-jadvallarda keltirilgan. Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, Cu (II) va Co (II) ionlari bilan tabiiy indigo reagentining hosil qilgan komplekslarini spektrofotometrik aniqlash metodikasining toʻgʻriligini va qayta takrorlanuvchanligini tasdiqlaydi.

6-jadval

Ishlab chiqilgan Cu (II) ni tabiiy indigo reagenti bilan aniqlash usulining toʻgʻriligini «kiritildi-topildi» usuli bilan baholash (P=0.95, n=5)

№	Kiritildi Cu ²⁺ mkg	Topildi Cu ²⁺ , mkg $\bar{X} \pm \Delta X$	S	Sr
1	10,0	9,95±0,13	0,09	0,028
2	15,0	14,82±0,22	0,142	0,036
3	20,0	19,65±0,26	0,173	0,039
4	30,0	29,68±0,32	0,184	0,033
5	35,0	34,68±0,34	0,228	0,052

7-jadval

Ishlab chiqilgan Co (II) ni tabiiy indigo reagenti bilan aniqlash usulining toʻgʻriligini «kiritildi-topildi» usuli bilan baholash (P=0.95, n=5)


№	Kiritildi Co ²⁺ , mkg	Topildi Co ²⁺ , mkg $\bar{X} \pm \Delta X$	S	Sr
1	5,0	4,97±0,05	0,04	0,007
2	10,0	9,98±0,15	0,06	0,006
3	15,0	14,99±0,07	0,03	0,004
4	20,0	19,97±0,09	0,05	0,006
5	25,0	24,98±0,07	0,06	0,002

Maʼlumotlardan shuni koʻrish mumkinki, Cu (II) va Co (II) ionlarini olingan miqdorlari bilan topilgan miqdorlari bir-biriga toʻgʻri keladi, bunda nisbiy standart chetlanish (Sr) 0,007 dan oshmaydi.


Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlashga halaqit beruvchi ionlarning taʼsiri oʻrganildi. Cu (II) ni aniqlashga Fe³⁺, Pb²⁺, Co²⁺, Zn²⁺, SCN⁻, Pb²⁺, Fe²⁺, SO₄²⁻; Co (II) ni aniqlashda Cu²⁺, Pb²⁺, Fe³⁺, Fe²⁺, Zn²⁺, Co²⁺, SCN⁻, NO₂⁻ ionlari halaqit berishi aniqlandi. Halaqit beruvchi ionlarni niqoblovchi agentlar yordamida niqoblandi. Olingan natijalar asosida Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlashni sunʼiy aralashmalar analiziga qoʻllanildi.

IQ spektroskopiya usuli yordamida PPA-1 tolaga immobillangan tabiiy indigo reagentini Cu (II) ioni bilan hosil qilgan kompleksining bogʻlanish mexanizmlari oʻrganildi. Immobillangan reagent tola spektridagi N-H guruhiga tegishli valent

tebranish 3196 cm^{-1} sohasidagi yutilish chastotasi kompleks birikmada 3209 cm^{-1} sohasiga siljigan, $\text{C}=\text{O}$ guruhiga tegishli 1610 cm^{-1} sohasidagi yutilish chastotasi 1604 cm^{-1} sohaga siljiganini ko'rsatadi shuningdek, 1389 cm^{-1} sohasi 1383 cm^{-1} sohaga, 1045 cm^{-1} sohasi 1066 cm^{-1} sohaga, 781 cm^{-1} sohasi 761 cm^{-1} sohaga siljiganini ko'rish mumkin. $-\text{O}-\text{Me}$ metall kislorod bog'i 506 cm^{-1} yutilish sohasi kuzatilgan. 15-rasmdan shuni ko'rish mumkinki, PPA-1 tolaga immobillangan indigo reagenti tarkibidagi $\text{C}=\text{O}$, $=\text{N}-\text{H}$, $-\text{NH}_2$ analitik va funksional guruhlarda valent va deformatsion tebranishlar hisobiga sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bu yutilish polosalaridagi o'zgarishlar immobillangan indigo reagenti bilan $\text{Cu}(\text{II})$ ioni kompleks hosil bo'lganligidan dalolat beradi. Organik reagentning metal ionlari bilan hosil qilgan komplekslari infraqizil spektrlari IQ fur'e-spektrometr Bruker Invenio S-2021 (Germaniya), «Nicolet IS50: FTIR Grows» larda olindi.



14-rasm.PPD-1 tolaga immobillangan indigo reagentini $\text{Co}(\text{II})$ ioni bilan hosil qilgan kompleksi



15-rasm. PPA-1 tolaga immobillangan indigo (1) va uning $\text{Cu}(\text{II})$ ioni bilan hosil qilgan kompleksi (2)

Olingan natijalardan shuni kuzatish mumkinki, immobillangan indigo reagenti bilan $\text{Cu}(\text{II})$ va $\text{Co}(\text{II})$ ionlaridan kompleks birikma hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning «Ishlab chiqilgan $\text{Cu}(\text{II})$ va $\text{Co}(\text{II})$ ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopik usullarini analitik qo'llanilishi» nomli beshinchi bobida aniqlanilayotgan ionlarni inson organizmiga bo'lgan ta'siri, shuningdek ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik aniqlash usuli bo'yicha olingan natijalar keltirilgan. Sorbsion-spektroskopik usul yordamida $\text{Cu}(\text{II})$ va $\text{Co}(\text{II})$ ionlarini binar, uchlamchi va murakkab model aralashmalarda aniqlash uchun tajribalar jarayonlari olib borildi. Olingan natijalar 8-9-jadvallarda keltirildi.

8-jadval

Sun'iy aralashmalarda $\text{Cu}(\text{II})$ ionini immobillangan indigo organik reagenti yordamida aniqlash natijalari ($\text{pH}=3-6$, $\text{P}=0,95$, $n=5$)

№	Analiz qilinayotgan sun'iy aralashma tarkibi	Topilgan Cu^{2+} mkg/ml $\bar{X} \pm \Delta\bar{X}$	S	S_r
Cu (II)				
1	$\text{Cu}^{2+}(10,0)+\text{Co}^{2+}(2,0)$	$9,95 \pm 0,13$	0,09	0,028

8-jadval davomi

2	$\text{Cu}^{2+}(15,0)+\text{Co}^{2+}(5,0)+\text{Fe}^{2+}(3,0)$	$14,82\pm 0,22$	0,142	0,036
3	$\text{Cu}^{2+}(20,0)+\text{Na}^+(5,0)+\text{Fe}^{3+}(10,0)$	$19,65\pm 0,26$	0,173	0,039
4	$\text{Cu}^{2+}(30,0)+\text{Sn}^{2+}(5,0)+\text{Hg}^{2+}(2,0)+\text{Zn}^{2+}(5,0)$	$29,68\pm 0,32$	0,184	0,033
5	$\text{Cu}^{2+}(35,0)+\text{Pb}^{2+}(5,0)+\text{Fe}^{2+}(5,0)+\text{Co}^{2+}(5,0)$	$34,68\pm 0,34$	0,308	0,052
6	$\text{Cu}^{2+}(40,0)+\text{Mg}^{2+}(5,0)+\text{Zn}^{2+}(10,0)+\text{Pb}^{2+}(5,0)$	$39,77\pm 0,25$	0,207	0,032

Ushbu metod yordamida Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlash usuli kimyo sanoati chiqindi suvlari analizida qo'llanildi.

Immobilangan tabiiy indigo reagenti yordamida Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlashda ishlab chiqilgan bu yangi usul «Xorazm Baxmal» MChJ, «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» va «Navoiy kon-metallurgiya kombinat» MChJlari chiqindi suvlari tahlillarida qo'llab ko'rildi. Olingan natijalar 10-11-jadvallarda keltirilgan.

9-jadval

Sun'iy aralashmalarda Co (II) ionini immobilangan indigo reagenti yordamida aniqlash natijalari (P=0.95, n=5, pH=2-5)

№	Analiz qilinayotgan sun'iy aralashma tarkibi	Topilgan Co^{2+} mkg/ml $\bar{X} \pm \Delta\bar{X}$	S	Sr
Co (II)				
1	$\text{Co}^{2+}(5,0)+\text{Cu}^{2+}(2,0)$	$4,92\pm 0,09$	0,170	0,076
2	$\text{Co}^{2+}(5,0)+\text{Cu}^{2+}(2,0)+\text{Fe}^{2+}(3,0)$	$4,89\pm 0,19$	0,187	0,084
3	$\text{Co}^{2+}(5,0)+\text{Na}^+(5,0)+\text{Fe}^{3+}(10,0)$	$4,90\pm 0,23$	0,296	0,133
4	$\text{Co}^{2+}(10,0)+\text{Sn}^{2+}(5,0)+\text{Pb}^{2+}(10,0)$	$9,95\pm 0,26$	0,384	0,121
5	$\text{Co}^{2+}(20,0)+\text{K}^+(5,0)+\text{Fe}^{2+}(10,0)$	$19,85\pm 0,36$	0,420	0,094
6	$\text{Co}^{2+}(30,0)+\text{Fe}^{3+}(5,0)+\text{Be}^{2+}(10,0)+\text{Ni}^{2+}(10,0)$	$29,83\pm 0,40$	0,480	0,087

10-jadval

Chiqindi suvdagi Cu (II) ionlarini aniqlash natijalari (P=0.95, n=5, pH=3-6)

№	O'rganilayotgan ob'ektlar	Ishlab chiqilgan usul			Dav ST usul*
		$\bar{X} \pm \Delta\bar{X}$	S	Sr	Sr
1	«Xorazm Baxmal» MChJ $\text{Cu}^{2+}=5,0$ mkg/ml	$4,93\pm 0,029$	0,0168	0,007	0,006
2	«NKMK» chiqindi suvi $\text{Cu}^{2+}=6,0$ mkg/ml	$5,91\pm 0,035$	0,024	0,009	0,007
3	«OKMK» chiqindi suvi $\text{Cu}^{2+}=5,0$ mkg/ml	$4,96\pm 0,028$	0,020	0,008	0,0065

Chiqindi suvdagi Co (II) ionlarini aniqlash natijalari
(P=0.95, n=5, pH=2-5)

№	O'rganilayotgan ob'ektlar	Ishlab chiqilgan usul			Dav ST usul*
		$\bar{X} \pm \Delta\bar{X}$	S	Sr	Sr
1	«Xorazm Baxmal» MChJ Co ²⁺ =6,35 mkg/ml	6,33±0,0169	0,023	0,009	0,008
2	«NKMK» chiqindi suvi Co ²⁺ =7,26 mkg/ml	7,24±0,021	0,018	0,006	0,0054
3	«OKMK» chiqindi suvi Co ²⁺ =7,86 mkg/ml	7,85±0,026	0,026	0,009	0,0082

Sanoat korxonalari chiqindi suvlari tarkibini analiz natijalaridan ko'rinadiki, Cu (II) va Co (II) ionlarini tabiiy indigo reagenti yordamida analizlarini, ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usullarning maxsus sharoitda yuqori aniqligi, tanlovchanligi va aniqlanadigan konsentrasiyaning quyi chegaralarga egaligi va nisbiy standart chetlashish 0,33 dan oshmasligi bilan tavsiflanadi.

Ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul adabiyotlarda keltirilgan, shuningdek sanoatda qo'llaniladigan usullar bilan solishtirildi va raqobatbardoshligi ko'rsatib berildi.

XULOSALAR

1. Ilk bor mahalliy sharoitda o'stirilgan Indigofera Tinctoria o'simligidan ajratib olingan indigo moddasi eritmalardagi Cu (II) va Co (II) ionlarini sorbsion-spektroskopik usulda aniqlash mumkinligi isbotlangan va analitik reagent sifatida ishlatish taklif qilingan.
2. PPA-1 va PPD-1 tolalariga tabiiy indigo reagentinining immobillanishi kislotali muhitda «analitik faol-karbonil guruh va tolalardagi amino» guruhlari o'rtasidagi kimyoviy bog' hisobiga amalga oshganligi va ushbu reagentning Cu (II) va Co (II) ionlari bilan hosil qilgan komplekslarini optimal sharoitlari Cu (II) uchun pH=3-6 va Co (II) uchun pH=2-5 oralig'ida ekanligi topilgan.
3. Kvant-kimyoviy hisoblashlar va optik analiz usullari (IQ, sorbsion-spektroskopik, nur yutilish spektroskopiyasi) yordamida eritmada Cu (II) va Co (II) ionlarini indigo reagenti bilan kompleks hosil qilish mexanizmi aniqlangan. Indigoning Cu (II) va Co (II) ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining tarkibi mol nisbatlari 1:1 ekanligi va muvozanat konstantalari tegishlicha $K_m=1,68 \cdot 10^4$ va $K_m=2,26 \cdot 10^4$ tengligi ko'rsatilgan, natijada komplekslarning barqarorligi Co(II)>Cu(II) qatorida ortib borishi isbotlangan.
4. Cu (II) va Co (II) ionlarini immobillangan indigo reagenti bilan hosil qilgan kompleks birikmalarini Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi 5-60 mkg/50 ml, oralig'ida kuzatildi olingan natijalarning aniqligi 1 ga yaqin korrelyatsiya koeffitsiyenti bilan izohlangan.

5. Immobilangan indigo reagenti yordamida Cu (II) va Co (II) ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopik usuli ishlab chiqilgan, bunda olingan natijalarning nisbiy standart chetlanishi 0,33 dan oshmaganligi kuzatilgan va binar, model, uchlamchi va murakkab aralashmalar analizida foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan.
6. Indigo reagenti yordamida Cu (II) va Co (II) ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlashning usuli «Olmaliq kon metallargiya kombinati» va «Navoi kon metallurgiya kombinati» AJ larining laboratoriyalarida sinovdan o'tdi va natijada Cu (II) va Co (II) ionlarini sanoat chiqindi suvlari tarkibida aniqlashning tezkorligi, arzonligi, tanlab ta'sir etuvchanligi bilan farq qilishi isbotlangan va ob'ektlar analizida qo'llashga tavsiya etilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.К.01.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

ХОРЕЗМСКАЯ АКАДЕМИЯ МАЪМУНА

ЭШЧАНОВА АЗИЗА КАРРИЕВНА

**ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПРИРОДНОГО ИНДИГО И
ЕГО АНАЛИТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ ПРИ ОПРЕДЕЛЕНИИ
НЕКОТОРЫХ МЕТАЛЛОВ**

02.00.02-Аналитическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2020.4.PhD/K331.

Диссертация выполнена в Хорезмской академия Маъмуна.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу Научного совета ik-kimyo.nuu.uz. и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу www.ziyo.net.

Научный руководитель

Сманова Зулайхо Асаналиевна,
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Абдурахмонов Эргашбой
доктор химических наук, профессор

Яхшиева Зухра Зиятовна
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация

Ташкентский фармацевтический институт

Защита диссертации состоится «15» 06 2023 г. В 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.K.01.03 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская, 4, Тел.: (+99871) 246-07-88, 277-12-24; факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: chem0102@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован за №81). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-07-88, 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz

Автореферат диссертации разослан «01» 06 2023 г.

(протокол рассылки № 6 от «01» 06 2023 г.)

Ш.Ш.Даминова

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.х.н., профессор

М.А.Махкамов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.х.н., профессор

Н.Х.Кутлимуротова

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
учёных степеней, д.х.н.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время природное вещество индиго широко используется в фармацевтической, пищевой, парфюмерной и текстильной промышленности для получения различных препаратов. В частности, из индиго и его производных получают антибактериальные, антиоксидантные, противораковые препараты, а также красители. Поскольку в составе индиго содержатся функциональные активные группы, он также является аналитическим реагентом в аналитической химии при разработке методов эффективного обнаружения тяжелых металлов.

В мире ученые химики ведут научно-исследовательские работы по разработке различных методов обнаружения ионов тяжелых металлов на основе иммобилизованных органических реагентов. Природные органические реагенты в аналитической химии имеют важное значение в научных исследованиях по определению золота, серебра и других металлов. В аналитической химии особое значение имеет разработка селективных, экспрессных и современных методов определения ионов тяжелых металлов с помощью органических реагентов.

